

**Pulatova Dilafroz Toxirjonovna**  
**Andijon Davlat Chet tillari Instituti**  
**Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi**  
**e-mail: [dilafrozpulatova0913@gmail.com](mailto:dilafrozpulatova0913@gmail.com)**

---

## **TA'LIMNI "4K" MODELİ ASOSIDA TAKOMİLLASHTIRISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "4K" modeli va uni ta'limda tutgan o'rni, undan unumli foydalanish va boshlang'ich sinflardagi natijalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Model, boshlang'ich, ta'lim, mustaxkamlash, pedagogika, ko'nikma.

**Annotation:** This article discusses the «4K» model and its role in education, its effective use and result in elementary classrooms.

**Keywords:** Model, elementary, education, reinforcement, pedagogy, skill

---

Zamonaviy ta'lim darslarda o'quvchilarni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo'naltirish lozimligini taqozo etadi. Ta'limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday yondashuvlardan biri "4K" modelidir. Kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan "4K" modeli yod olishga yo'naltirilgan kontent o'rniga o'quvchilarni mustaqil fikrini qo'llab quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim omildir. Ammo, shu bilan birga o'quvchining bilim va qobiliyati yuzaga chiqarishda o'qituvchining o'zi kasb mahoratidan kelib chiqib, "4K" yondashuvining asosiy mazmun va mohiyatini anglab yetishi va dars jarayonida qo'llashi lozim.

"4K" yondashuvi haqida Xalq ta'limi va zirining 2022- yil 5 dekabrda 372 - sonli "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi buyrug'ida ham ta'kidlab o'tilgan. PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishgan davlatlar ta'lim tizimida o'quvchilarida "4K" ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida e'tibor berilganligi va shuning uchun ham ular shunday yuqori natijalarga erishishayotganligi ham hammamizga ayon.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi darsliklar asosida ta'lim olishni boshlashdi. Darsliklarni asosiy xususiyatlaridan biri ularni "4K" modelida yozilganligidir. Ya'ni bu tamoyilda ma'lumotlarni shunchaki yodlatish yoki o'qish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni balki XXI asrda kerak bo'ladigan ma'lumotlarni ham o'rganishadi.

"4K" yondashuvi o'z nomi bilan 4 tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya – hamkorlik - bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati, o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganishdir. Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun'iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kritik fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o'zlashtirmaslik, har doim o'z fikriga ega bo'lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ushbu muhim Kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishga imkon yaratishini hisobga olsak, maktabdagi har bir darsni o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur. Hamkorlik muhitini yaratish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoani rivojlantirish nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu nazariyaning mohiyati insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o'rin tutishiga asoslanadi. Har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi.

Hamkorlikda har bir o'quvchi ta'lim jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lishi, bilish faoliyat turlarini ongli ravishda tanlab olishi, fikrlash faoliyati bilan shug'ullanishi, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rganishi, imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishi zarur. Takrorlash va mustahkamlash darslarida kichik guruhlarda ishlash jarayonida ta'lim oluvchilar bir-biriga o'rtoqlik yordamini ko'rsatadilar, o'zlashtirishi pastroq o'quvchilar do'stona yordamni his qiladilar, guruhlar o'rtasida sog'lom raqobat ruhi tug'iladi, bu ularni muvaffaqiyatli faoliyatni shakllantirish uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Bunday hollarda o'qituvchining roli faqat muvofiqlashtirish, yo'l-yo'riq, maslahat va rag'batlantirishdan iborat. Hamkorlik muhiti ishtirokchisi muloqot davrida shaxsiy fikrini bayon etish bilan birga, o'zgaralar fikri bilan ham hisoblashadi, o'zini boshqaradi, u yoki bu ma'lumotlarni bilishi guruhga muvaffaqiyat olib kelishi, aksincha, topshiriqlarni o'z vaqtida bajaraslik mag'lubiyatga sabab bo'lishini amaliyotda ko'radi, o'quvchining mas'uliyat hissi ortadi. Intellektual munozara maydoni, xayrixohlik va ishbilarmonlik muhiti shakllanadi. Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining hamkorlikda ishlash, ya'ni kollektiv bo'limi yuqori samaradorlikka ega. O'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud: guruhlarda o'qitish (R.Slavin)da o'quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi. R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas.

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatda esa, sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Inson muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf darslarida "4K" modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi; o'quvchilarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi) axborot beradi, o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi, o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarni kengaytiradi, axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi, turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiydarajadagi guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni ilgari suradi, hamkorlik shunday holatki, ta'lim jarayoni subyektlari birgalashib faoliyat qiladi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamotchilik yuzaga keladi. Pirovard natijada jamiyat buyurtmasi bajariladi – raqobatbardosh, hamkorlikka shay, turli hayotiy vaziyatlarda muammolarni anglab, ularni hal qilishga dadil kirishuvchi, tafakkur kuchiga ishonuvchi, jamoada mustaqil

mulohazalarini ayta oladigan, o‘z fikr va qarashlarini himoya qila oladigan, savodxon kadrlarni tarbiya qilamiz.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Dars jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar va tarqatmali vositalar ham “4K” yondashuviga asoslangan holda tashkil etilsa, dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2008-yil.
2. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent – 2015.
3. Эргашева Д. И. К методическому вопросу анализа учебников в преподавании иностранных языков // Педагогическое мастерство: мат-лы II Междунар. науч. конф. (г. Москва, декабрь 2012 г.). М.: Буки-Веди, 2012.
4. Kazakbayeva D. Typology of the constituents of the semantic field of the concept of “ear” in English and Uzbek. SOI: 1.1/TAS. DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online). Year: 2021. Issue: 11. Volume: 103 Published: 30.11.2021
5. Kazakbayeva, D. (2021). THE WORDS WITH THE SEMANTICS OF «EAR» PRAGMATIC PROPERTIES IN THE UZBEK LANGUAGE. InterConf, (72). вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/interconf/article/view/14143>
6. D. Kazakbayeva, S. Qodirov. Ingliz va o‘zbek tillarida "quloq" semantic maydoni konstituentlari tipologiyasi, Science and education 2 (4), 2021, p441-452
7. Shukurdinovna, Shamatova O., and Kazakbayeva D. I. Kizi. "Pedagogical Problems of Creating English Textbooks." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 109-112.
8. Сущность речевой культуры при обучении иностранному языку. Дильфуза Илхамовна Эргашева. Молодой ученый, 316-317, 2010
9. Kazakbayeva, D., Shokirov, Sh., & Mamatkulov, A. (2021). Research on lexica semantic field of “ear” in different structural languages. Philosophical readings 13, 2283-2289.
10. ИШАНЖАНОВА, М. ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК БАДИИЙ МАТНЛАРИДА МАКОН ДЕЙКСИСЛАРИНИНГ СЕМАНИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *О‘ЗБЕКISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2020,[1/1] ISSN 2181-7324.
11. Mumtoza, A., & Munosibxon, I. (2023). COMMUNICATION IS THE BASIS OF THE COMMUNICATIVE METHOD. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(11), 194-196.
12. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education system alignment for 21st century skills: focus on assessment. – Brookings institution, 2018.